

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

RAXMATOVA DILFUZA AXMEDOVNA

**VOHID ABDULLAYEV ILMIY FAOLIYATINING
ADABIYOTSHUNOSLIK TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doktor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Raxmatova Dilfuza Axmedovna

Vohid Abdullayev ilmiy faoliyatining adabiyotshunoslik taraqqiyotidagi o‘rni 5

Рахматова Дилфуза Ахмедовна

Роль научной деятельности Вохида Абдуллаева в развитии
литературоведения 22

Rakhmatova Difuza Akhmedovna

The role of Vahid Abdullayev’s scientific activity in the development
of literary studies 44

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

RAXMATOVA DILFUZA AXMEDOVNA

**VOHID ABDULLAYEV ILMIY FAOLIYATINING
ADABIYOTSHUNOSLIK TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.2.PhD/Fil2458 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Muxitdinova Nazmiya Muslixiddinovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar: Musurmonov Erkin Rabbimovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Sattorova Gulnoz Yunusovna
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "24" dekabr soat 14⁰⁰ da majlislar zalida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rector) @samdu.uz Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Bosh o'quv binosi, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№134 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "11" dekabr kuni tarqatildi.
(2024-yil "11" dekabr dagi 19 -raqamli reestr bayonnomasi).



Sh.A.Hasanov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

D.B.Xursanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

G.H.Umirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
seminar raisi o'rinbosari,
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida areal manbashunoslik maktabini yaratgan olimlarning ilmiy, adabiy, estetik faoliyati, ilmiy-nazariy qarashlari mohiyati, ifodadagi o'ziga xosliklar, an'anaviy poetik uslubning davomiyligiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, ijodiy metod va uslub borasidagi qarashlar, qo'lyozmalar bilan ishlash usullari, matnshunoslik bilan bog'liq nazariy qarashlar, xulosalarning kodlangan sifatlari novatorlik zahirida vujudga kelganligini dalillash adabiyotshunoslikdagi muhim masalaga aylanmoqda. Millatning ma'naviy-madaniy merosi, ijodiy jarayondagi an'ana va novatorlik jihatlarini aniqlash, adabiyotshunoslikni tarixiy, nazariy va manbaviy jihatdan rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida mumtoz manbalar talqini, og'zaki va yozma adabiyotning tadrijiy takomili, adabiy-estetik qarashlarning asoslari, shakllanish bosqichlari, yetakchi tamoyillarini aniqlash, muayyan adib ijodiga yondashuv usullari va badiiy asarni baholash tamoyillari, adabiy nashr va tarjima nazariyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tarixning muayyan bosqichlarida adabiy hodisalarga nisbatan qiyosiy yondashuvning o'sib borishi adabiy-estetik tafakkur va munosabatlar mazmunini kashf etish, og'zaki va yozma manbalarning qiyosiy-tipologik sintezi, mifologik obrazlarni qo'llash mahorati, uslub poetikasiga e'tibor qaratish, an'anaviylik hamda novatorlikning konsepsiyalarini aniqlash bugungi adabiyotshunoslik oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda she'r va shuur tahlili, talqiniga bo'lgan qiziqish tobora ortmoqda. "Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiydir. Chunki ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir"¹. Buning natijasida ijodkor individual uslubining yuzaga kelishida an'analarning ahamiyati, ijodining shakllanish jarayonidagi uzluksizlik tizimining ijodiy ta'siri, o'zbek adabiyoti tarixi, Navoiyni anglash, izdoshlik an'analari, keyinchalik adabiy muhit darajasiga yetishi kabi bosqichlarni o'rganish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan atoqli adabiyotshunos olim – akademik Vohid Abdullayev ilmiy merosi hamda uning o'zbek adabiyotshunosligi taraqqiyoti rivojiga qo'shgan hissasini monografik tarzda o'rganish soha rivoji uchun muhim va qimmatli materiallar berishi bilan alohidalik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 20-apreldagi PQ-

¹ Mirziyoyev Sh.M. Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak. Yangi O'zbekiston. – Toshkent, № 267 (1056) 2023-yil 23-dekabr.

2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-sonli “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ’ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”, 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4865-sonli “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to’g’risida” gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy-huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g’oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo’llari” ustuvor yo’nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o’rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligi tarixi taraqqiyotida adabiyotshunoslikning ilmiy-nazariy tamoyillari va metodlarini biografik tadqiqi yuzasidan Rossiya, Ozarbayjon, Tojikiston, Qozog’iston, Qirg’izistonda ko’plab izlanishlar amalga oshirilgan. O’zbek adabiyotshunosligida ham Abdurauf Fitrat, Vadud Mahmud, Otajon Hoshim, Aziz Qayumov, Abduqodir Hayitmetov kabi olimlarning faoliyati alohida tadqiqot mavzusi sifatida tekshirilgan. Keyingi davrda tadqiqot tamoyillari, uslubi, ahamiyati e’tibordan chetda qolayotgan adabiyotshunos olimlarimiz izlanishlarini metodologik jihatdan kuzatish, induktiv va deduktik tamoyillar asosida sintezlash adabiyotshunoslik ilmi taraqqiyotining asosiy negizini tashkil etmoqda. Shu vaqtga qadar Vohid Abdullayev ilmiy faoliyatining adabiyotshunoslik maktablaridagi ahamiyati tadqiq etilmagan. Muammoning batafsil o’rganilmaganligi bu borada maxsus tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Akademik Vohid Abdullayevning to’rt yuzdan ortiq publitsistik mazmunda yozilgan asarlari mavjud. Olim Xorazm diyoriga mansub oltmishga yaqin noyob qo’lyozma manbalar, arxiv materiallari, mumtoz so’z san’atimiz namoyandalarining badiiy asarlarini ijtimoiy va adabiy voqelik bilan uzviylikda tekshirgan. Olimning asarlari va qarashlari maxsus ilmiy tadqiq etilmagan bo’lsa-da, uning o’zbek mumtoz adabiyoti tarixini o’rganish, navoiyshunoslik, manbashunoslik va matnshunoslik sohasidagi nazariy fikrlari va amaliy ishlari, erishgan yutuqlari ko’pchilik olimlarning e’tibori va e’tirofiga sazovor bo’lgan. Uning shaxsiyati, hayoti va ijodiga doir xotiralar zamondoshlari nigohida², ilmiy ishlariga xos ijobiy xususiyatlar H.Sulaymon, G’.Salomov, G’.Karimov, S.Oripov, A.Qayumov, A.Hayitmetov, O.Rasulova, M.Qosimova, A.Qosimxo’jayeva, B.Valixo’jayev, R.Vohidov, R.Orzibekov, O.Ikromov, I.Suvonqulov, H.Homidiy, H.Boltaboyev, H.Umurov, M.Muhiddinov, I.Mirzayev, S.Karimov, D.Salohiy,

² Адабиёт илмининг алломаси. (Академик Воҳид Абдулла замондошлари нигоҳида). – Тошкент: Шарқ, 1997. – 128 б.

N.Jabborov, S.Olimov, T.Qorayev, R.Fozilova, S.Tohirov, G.Xoliqulova, I.Sulaymonov kabi olimlarning munosabatlarida³ munosib e'tirof etilgan. Adabiyotshunos olim izlanishlarida bo'y-bastini ko'rsatgan o'zbek adabiyoti tarixi va adabiyotshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalar keyingi yillarda yaratilgan ilmiy tadqiqotlarda⁴ ham muayyan darajada o'z aksini topgan.

Samarqand qadimdan jahongir fotihlar, san'at va madaniyat ahli, tolibi ilm-u hikmat, tariqat va ma'rifat ahli talpinadigan, jamlanadigan maskandir. Shunday insonlardan biri "Samarqand allomasi", "dilso'z va dilkash inson", "murabbiylar murabbiyi", "Samarqand fozillarining sardori" kabi ta'riflar bilan tanilgan ustoz, ijodkor, taniqli adabiyotshunos olim, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, O'zRFA akademigi Vohid Abdullayevich Abdullayev edi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari

³ Каримов Ғ. Ўзбек мумтоз адабиётини ўрганиш илмий мактаби. – Тошкент: Фан, 2008. – 279 б.; Абдуллаев В. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 2002. – 123 б.; Алишер Навоий ижодини ўрганишда илмий мактабларнинг роли. 1-қисм. Илмий-назарий конференция тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 2012. – 61 б.; Олим илмий мактабида Алишер Навоий ижодини ўрганиш масаласи. 2-қисм. Илмий-назарий конференция тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 2012. – 130 б.; Валихўжаев Б., Воҳидов Р. Эзгулик – умр мазмуни. – Тошкент: Фан, 1992. – 100 б.; Тохиров С., Холиқулова Г. Академик Воҳид Абдуллаев. Адабий портрет. Самарқанд, 2012. – Б.153.; Муҳиддинов М. Самарқанд навоийшунослик мактаби алломаси. Янги Ўзбекистон. 24.10.2020. – 4 б.; Sulaymonov I. Adabiyot ilmining allomasi – Vohid Abdullayevni eslab. ZarNews. 06.05.2021.

⁴ Мадғозиев М. Рожий Марғиноний ҳаёти ва адабий мероси. Филол. фан. номз... дисс. – Самарқанд, 1973. – 145 б.; Абдуллаев В., Валихўжаев Б. Муҳаммадниёз Нишотий. Сайланма. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982 – 230 б.; Абдуллаев Р. Амирушшуаро Муиззийнинг ижодий маҳорати: Филол. фан. б. фалс.док. ...дисс. автореф. – Самарқанд, 2000. – 25 б.; Жўраев Ж. Жунуний ва унинг "Рисолаи муаммо" асари: Филол. фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 25 б.; Каримова Д. Мирзо Содик Мунший Жондорий адабий меросининг жанрий таркиби ва бадиияти: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Самарқанд, 1997. – 27 б.; Орзибеков Р. Шавқий Каттақўрғоний ва унинг адабий муҳити. Филол. фан. номз... дисс. – Самарқанд, 1963. – 145 б.; Жабборов Н. Фурқат ва миллий уйғониш. Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 1988. №4. – 33 б.; Равшанов Ф. Холис ва унинг адабий мероси: Филол. фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент: 1997. – 25 б.; Салоҳиддинов И. Ноқис Каттақўрғоний ва унинг адабий муҳити. Филол. фан. номз... дисс. – Самарқанд, 1964. – 140 б.; Санаев И. Нодим Зиёвуддиний ва унинг замондошлари: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Самарқанд, 1998. – 28 б.; Шодмонов Н. "Шоҳид-ул-икбол" – адабий манба. – Тошкент: Фан, 2009. – 319 б.; Аминов Ҳ. Хоразмда китоб тарихи манбалари (XVIII аср иккинчи ярми – XX аср бошлари: ЎзРФАШИ қўлёзмалар фонди асосида). Тарих фан. номз... дисс. – Тошкент, 2010. – 143 б.; Бердимуратова М. Муҳаммад Юсуф Рожий Хоразмий адабий мероси. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2010. – 154 б.; Жўраев Ж. Комёб ҳаёти ва ижодий мероси манбалари тадқиқи. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2011. – 142 б.; Исмоилова Г. Феруз даври Хоразм адабий муҳити. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1995. – 139 б.; Маткаримова С. Табибий – тазкиранавис ("Мажмуаи шуарои пайрави Ферузошхӣй" асосида). Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2007. – 136 б.; Матякубова М. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX асрнинг бошларида Хива хонлигида китобат ва кутубхона тарихи. Тарих фан. номз... дисс. – Урганч, 2008. – 187 б.; Ҳажиева И. "Ҳафт шуаро" мажмуасининг Хоразм адабий муҳитидаги ўрни. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2008. – 150 б.; Халлиева Г. Оғаҳий мусамматлари. Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 2000. – 155 б.; Ғанихўжаев Ф. Аҳмаджон Табибийнинг ҳаёти ва ижоди. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1969. – 159 б.; Ҳасанов С. Хоразм маърифати – олам кўзгуси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996, – 304 б.; Ҳамидова М. Қўлёзма баёзлар – адабий манба. – Тошкент: Фан, 1981, – 122 б.; Ҳайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 216 б.; Қобулов Н. Хоразм адабий муҳити. 1-китоб. – Урганч, 1992. – 144 б.; Юсупов Ю. Хоразм шоирлари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1967. – 140 б.; Шодмонов Н. Тўрт адиб сабоғи. – Қарши: Насаф, 2017. – 100 б.; Хоразмда битилган қўлёзмалар (тузувчи Машарипова Г.). – Тошкент: Фан. 1997. – 84 б.; Жумаев Н. Мунис ғазалиёти. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991. – 160 б.; Аминов Ҳ. Хоразмда китоб тарихи манбалари (XVIII аср иккинчи ярми – XX аср бошлари: ЎзРФАШИ қўлёзмалар фонди асосида). – Тошкент: Фан, 2009. – 189 б.;

rejalariga muvofiq “Alisher Navoiy va adabiy ta’sir masalalari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Vohid Abdullayevning hayot yo‘li va ilmiy faoliyatini yoritish, adabiy-estetik qarashlarining asoslari, navoiyshunoslikka qo‘shgan hissasi, muayyan adib ijodiga yondashuv usullari, badiiy asarni baholash tamoyillarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Vohid Abdullayevning ilmiy biografiyasini yaratish;
adabiy-estetik qarashlaridagi tafakkur ildizlarining o‘ziga xosliklarni aniqlash;
navoiyshunoslikka doir tadqiqotlarining miqyosi, yo‘nalishlari, o‘ziga xos yetakchi tamoyillari, yutuqlari, ilmiy ahamiyatini isbotlash;

adabiyotshunos olimning ijodiy metod va uslub borasidagi tadqiqotlarining ilmiy-nazariy qimmatini belgilash;

Vohid Abdullayev adabiyotshunoslikning turli yo‘nalishlarida samarali faoliyat ko‘rsatgan serqirra olim ekanligini yoritib berish;

olimning matnshunos sifatida nashrga tayyorlagan asarlari, qo‘lyozmalar bilan ishlash usullari, matnshunoslik bilan bog‘liq nazariy qarashlarini oydinlashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida akademik Vohid Abdullayevning adabiyotshunoslik, o‘zbek adabiyoti tarixi, navoiyshunoslik va badiiy ijodga doir asarlari qamrab olindi.

Tadqiqotning predmeti Vohid Abdullayev ilmiy-ijodiy faoliyatiga xos xususiyatlarni aniqlash, ilmiy-nazariy tamoyillarini ishlab chiqishni tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, kontekstual va biografik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Vohid Abdullayev adabiy-tanqidiy qarashlarining davriy, mazmuniy va janriy tamoyillari aniqlanib, o‘zbek adabiyotshunosligi va navoiyshunosligiga adabiy muhit, badiiy ta’sir va ijodiy maktab yaratish kabi an’analarni olib kirganligi asoslab berilgan;

olimning Samarqand ijod va ta’lim maktabi tarixi bilan bog‘liq nazirago‘ylik va muammonavislikka doir yondashuvlari asosida shakllangan hamda Alisher Navoiy adabiy-estetik qarashlarining bir qismi bo‘lgan “Navoiy va Samarqand” mavzusidagi ilmiy faoliyatida tarixiy sharoit, madaniy hayot, ilm-ma’rifatdagi qardoshlik, adabiy muhitlar aloqasi singari tarixiy-qiyosiy jihatlar muhim o‘rin tutganligi aniqlangan;

akademik Vohid Abdullayev izlanishlarida og‘zaki va yozma manbalarning qiyosiy-tipologik sintezi “Tohir va Zuhra”, “Yusufbek va Ahmadbek”, “G‘arib va Shohsanam” dostonlarining o‘zbek, turkman versiyalaridagi sujet hamda g‘oyaning xalqchilligi, umuminsoniyligi kabi o‘xshash va obrazlar, joylar nomlanishidagi farqli xususiyatlari dalillangan;

Vohid Abdullayevning o‘zbek adabiyoti tarixiga oid qarashlari asosida davrlashtirish, toshbosma, peshtoq, qo‘lyozma variantlarining rivojlanish darajasi,

Xorazm vohasidagi adabiy hayotning XVII-XVIII asrlardagi dinamik va statik holati, areal adabiyotshunoslikning adabiy muhitlararo ijodiy-genetik xususiyatlari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Akademik Vohid Abdullayevning adabiyotshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlari, uning matnshunoslik faoliyati davomida nashrga tayyorlagan kitoblari yaxlit holda o'rganilishi natijasida o'zbek adabiyotshunosligi va mumtoz adabiyot tarixi uchun zarur ilmiy fakt va ma'lumotlarni aniqlash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, tadqiqot davomida chiqarilgan xulosalar adabiyotshunoslik uchun yangi ilmiy-nazariy ma'lumotlar berishi, o'zbek adabiyoti tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid tarixi, ayniqsa, navoiyshunoslik kabi fanlardan yaratilgan ishchi dastur, darslik va qo'llanmalarning mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

Vohid Abdullayevning yirik mumtoz adabiyot mutaxassisi, matnshunos va nazariyotchi olim sifatidagi faoliyatining eng muhim qirralari ko'rsatib berilgani bugungi kun o'quvchisining dunyoqarashi va tafakkurini shakllantirishda hamda jamiyatning axloqiy-estetik va ma'naviy-ma'rifiy takomilida muhim ahamiyat kasb etishi aniqlangan, ommaviy-axborot vositalarida ustozlarning fidoiyligidan yoshlarni xabardor qilish, ilmsevarlikni, kitobxonlikni keng targ'ib va tashviq qilishda manba vazifasini o'tagan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda muammoning aniq qo'yilgani, qo'llanilgan usullar hamda yuzaga chiqarilgan fikr va qarashlarning tasniflash, tahliliy-qiyosiy, biografik va kontekstual tahlil metodlari orqali asoslangani, ishonchli ilmiy-nazariy manbalardan foydalanilgani, nazariy xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, chiqarilgan nazariy xulosalardan milliy adabiyotshunoslik fanining keyingi taraqqiyot yo'nalishlarini tayin etishda foydalaniladi. Shuningdek, dissertatsiyada yirik adabiyotshunos olimlar merosiga yondashishning asosli ilmiy tamoyillari ko'rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, undagi xulosa va tavsiyalardan adabiyotshunos va munaqqidlar ilmiy ijodini zamon ruhida talqin qilishda, shuningdek, oliy filologik ta'limda darslik o'quv qo'llanmalar yaratishda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkin. Shu bilan birga tadqiqot mumtoz adabiyot tarixi va navoiyshunoslikning yetakchi tamoyillarini aniqlashda material sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Vohid Abdullayevning adabiyotshunoslikka doir faoliyati hamda tadqiqotlarining ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqishi asosida:

Vohid Abdullayev adabiy-tanqidiy qarashlarining davriy, mazmuniy va janriy tamoyillari aniqlanib, o'zbek adabiyotshunosligi va navoiyshunosligiga adabiy muhit, badiiy ta'sir va ijodiy maktab yaratish an'alariga doir xulosalardan 2017-2020-yillarga mo'ljallangan FA-F1-OO5 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va

adabiyotshunosligini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasida foydalanilgan (O‘zR FA Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2022-yil 16-dekabrdagi 193/1-son dalolatnomasi). Natijada loyiha ishining muayyan adabiy muhit, badiiy ta’sir va ijod maktablariga oid tomonlarining ilmiy dalillar bilan boyishiga xizmat qilgan;

akademik Vohid Abdullayev izlanishlarida og‘zaki va yozma manbalarning qiyosiy-tipologik sintezi “Tohir va Zuhra”, “Yusufbek va Ahmadbek”, “G‘arib va Shohsanam” dostonlarining o‘zbek, turkman versiyalaridagi sujet hamda g‘oyaning xalqchilligi, umuminsoniyligi kabi o‘xshash va obrazlar, joylar nomlanishidagi farqli xususiyatlaridan olingan xulosalardan 2012-2016-yillarga mo‘ljallangan FA-F1-GOO2 “Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish” nomli fundamental loyihasida foydalanilgan (O‘zR FA Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2022-yil 16-dekabrdagi 193/1-son dalolatnomasi). Natijada Sharq mumtoz adabiyoti va folklor an‘analarining mushtarak aloqalari, o‘zbek adabiyoti tarixida ularning g‘oyaviy-badiiy takomili xususidagi mulohazalarni yoritish imkoniyati yaratilgan;

Vohid Abdullayevning o‘zbek adabiyoti tarixiga oid qarashlari asosida davrlashtirish, toshbosma, peshtoq, qo‘lyozma variantlarining rivojlanish darajasi, Xorazm vohasidagi adabiy hayotning XVII-XVIII asrlardagi dinamik va statik holati, areal adabiyotshunoslikning adabiy muhitlararo ijodiy-genetik xususiyatlari o‘rganilishidan olingan ilmiy natijalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi davlat muassasasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Mavzu”, “Taqdimot” ko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zMTRK “O‘zbekiston tarixi” telekanalining 2024-yil 6-fevraldagi 06-26-2/41-son ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuv va eshittirishlarning ilmiy ko‘rsatgich va tarixiy dalillar bilan boyishiga xizmat qilgan;

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti “Navoiy muzeyi” ilmiy-amaliy muzey-laboratoriyasida olimning Samarqand ijod va ta’lim maktabi tarixi bilan bog‘liq nazirago‘ylik hamda muammonavislikka doir yondashuvlari asosida shakllangan hamda Alisher Navoiy adabiy-estetik qarashlarining bir qismi bo‘lgan “Navoiy va Samarqand” mavzusidagi ilmiy faoliyatida tarixiy sharoit, madaniy hayot, ilm-ma’rifatdagi qardoshlik, adabiy muhitlar aloqasi singari tarixiy-qiyosiy jihatlar muhim o‘rin tutganligi xususidagi ilmiy-amaliy xulosalardan foydalanilgan (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 2024-yil 5-fevraldagi 10/570-son ma’lumotnomasi). Natijada “Navoiy muzeyi” ilmiy-amaliy muzey-laboratoriyasi adabiyotshunos Vohid Abdullayevning ilmiy faoliyatidan olingan xulosalar bilan boyigan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 6 ta xalqaro (jumladan, 2 tasi xorijda) va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiya asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan

ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan 2 tasi xorijiy jurnallarda, 6 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya 155 sahifadan iborat bo‘lib, kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirishda tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari belgilangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Vohid Abdullayev ilmiy-ijodiy faoliyatida o‘zbek adabiyotshunosligi takomili”** deb nomlangan. Bobning birinchi faslida **“Olim adabiy-ilmiy qarashlarining manbalari, tadriji va yetakchi tamoyillari”** xususida fikr yuritilgan. Bu faslda akademik Vohid Abdullayevning qisqacha tarjimai holi va asarlari, maqolalari, ilmiy ishlari obzori berilgan. Jahon adabiyotshunoslari tomonidan munosib e‘tirof etilgan akademik Vohid Abdullayevning ilmiy faoliyati quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- Sharq mumtoz adabiyotida adabiy-estetik tafakkur ildizlarining g‘oyaviy-badiiy takomili;
- O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi va manbalari;
- Alisher Navoiy hayoti va ijodining ilmiy, manbaviy tadqiqi;
- Alisher Navoiy va adabiy ta’sir masalasining nazariy asoslari;
- xalq kitoblari va mumtoz adabiyot;
- o‘zbek adabiyoti tarixi rivojida adabiy muhitlarning o‘rni: Samarqand, Buxoro, Xorazm adabiy muhiti.

Vohid Abdullayevning tarjimai holi rasmiy ma‘lumotlardan tashqari, o‘zining badiiy asarlarida, xotira-qissalarida keltirilgan. Olimning adabiyot sohasining haqiqiy jonkuyari ekanligini nafaqat salmoqli tadqiqotlari, darslik va qo‘llanmalari, she‘r va badihalari ham tasdiqlay oladi. Shu bilan birga uning ijod olamiga bag‘ishlangan ocherk yoki xotira to‘plamlar ham olim ilmiy-ijodiy faoliyatini yanada kengroq tahlil qilish imkonini beradi. V.Abdullayevning ko‘plab she‘rlari, dostonlari matbuotda e‘lon qilingan, keyinchalik she‘rlari jamlanib yig‘ma jildda nashr ettirilgan.

Vohid Abdullayev 1941-yilda ulug‘ o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy haqida O‘zbekistonda birinchilardan bo‘lib nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqladi. Vohid Abdullayevning ilmiy ishiga opponentlik qilgan mashhur olim va yozuvchi Sadridin Ayniy hamda yirik adabiyotshunos, professor Abdurahmon Sa’diylar tadqiqotga yuksak baho berishdi.

Akademik olim 1944-yilda O‘zbek davlat universiteti (hozirgi SamDU)ning o‘zbek adabiyoti kafedrasini mudiri, keyinchalik Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining rektori sifatida amalga oshirgan ishlari, ayniqsa,

diqqatga sazovordir. Olim boshqarib borgan ilmiy kengashda O.Ikromov, B.Valixo‘jayev, J.Ahmedjonov, K.Ahmedjonova, R.Orzibekov, M.Abdurahmonov, S.Mirzayev, N.Shukurov, Sh.Shukurov, Q.Tohirov, S.Halimov, I.Salohiddinov, S.Salomova, R.Majidov, T.Qorayev, I.Suvonqulov, O.Rasulova, M.Qosimova, V.Rahmonovalar V.Abdullayev rahbarligida nomzodlik dissertatsiyalarini, O.Ikromov, B.Valixo‘jayev, N.Shukurov, Sh.Shukurov, R.Orzibekov, Sh.Xolmatov kabi olimlar doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilishdi. V.Abdullayev “O‘zbek adabiyoti tarixi” besh jildligining XVII asr tarixiy sharoiti va madaniy hayoti, tazkiranavislik, badiiy hayot, Huvaydo qismlarini yozib berdi. Ustoz Vohid Abdullayev hayotini adabiyotga, ilmga, Alisher Navoiy merosiga, qolaversa, tabarruk qo‘lyozmalar bilan xalqni tanishtirishga bag‘ishladi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli ***“Vohid Abdullayev ilmiy faoliyatining adabiyotshunoslik maktablari taraqqiyotida tutgan o‘rni”*** deb nomlanadi. Akademik Vohid Abdullayev qirq yil davomida Samarqandda adabiyotshunoslik maktabini yaratish, o‘z atrofiga zukko, salohiyatli, madaniy-ma’naviy merosimizni xolis, ilmiy asosda baholay oladigan, chuqur tahlil va tadqiq eta oladigan yosh kadrlarni to‘plash, ularni har taraflama qo‘llab-quvvatlash, ularning ilm-fan bilan mashg‘ul bo‘lishi yo‘lida tinmay mehnat qildi. Olimning bu fazilati haqida akademik A.P.Qayumov shunday xotirlaydi: “Vohid Abdullayevich o‘zlari (doktorlik) dissertatsiya yoqlashlari bilanoq, darhol O‘zbekistonda yangi fan doktorlari tayyorlov ishiga kirishib ketgan edilar. Bu tamoyilga olim hayotining oxirigacha sodiq qoldi”⁵.

O‘zbek adabiyotshunosligining yetakchi tarmoqlaridan biri Samarqand maktabining dastlabki qadamlari, xususan, tarixiy manba va matnlarni chuqur tadqiq qilish XX asrning 20-30-yillaridayoq boshlangan edi. O‘zbek adabiyoti namunalarini to‘plash, ularni nashrga tayyorlash sohasida Samarqand davlat universiteti (sobiq O‘zDU)da ishlagan yetuk olimlar Abdurauf Fitrat, Abdurahmon Sa’diy, Sadriddin Ayniy, Vohid Abdullayev, Botirxon Valixo‘jayevlarning qator ilmiy tadqiqotlarini sanab o‘tish mumkin.

Akademik Vohid Abdullayev va uning ilmiy maktabi tadqiqotlarini quyidagi turlarga bo‘lib o‘rganish mumkin: 1. *O‘zbek adabiyoti tarixi bilan bog‘liq tadqiqotlar*. Xususan, Navoiy, Abulg‘oziy, Mutribiy, Maleho Samarqandiy, Nishotiy, Andalib, Roqim, Ravnaq, Vafoiy kabilarning nomlari olim ilmiy ijodi bilan bevosita bog‘liq. 2. *Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismi bo‘lgan adabiyot nazariyasiga oid ilmiy ishlar*. Sharq mumtoz adabiyotshunosligi tarixidan boxabar adib nazaridan kechgan har bir mumtoz adabiyot durdonasi ilmiy adab⁶ga ko‘ra tahlilga tortilgan. 3. *G‘oyaviy-badiiy ifoda*. Olim nuqtayi nazarida bu

⁵ Каюмов А. Улкан адабиётшунос. Абдуллаев В. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 2002. – Б.117.

⁶ Қаранг: Рустамов А. Адиблар одобидан адаблар. Абдуллаев В. Танланган асарлар. Икки жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 2002. Илми адаб. (Ғарб истилоҳига кўра: поэтика) зарурий, энг муҳим илмлар мажмуаси ҳисобланиб, қуйидаги филологик соҳаларни ўз ичига олади: луғат, сарф, яъни морфология; иштиқоқ – сўз ясалиши; наҳв – синтаксис, маоний, баён илми, аруз, қофия, иншо, шеър фарзи – бадоеъ, муҳозара – тарихий воқеа ва ривоятлардан фойдаланиш, расм-ул-хат. Мазкур илми адабни эгаллаганлар адиб (юнонча: филолог) деб юритилган.

adabiyotning kredosini ifodalaydi. Ma'rifat darg'alari an'anasida o'zlikni anglash yo'lidagi umuminsoniylik, an'anaviylik va novatorlik badiiy adabiyot taraqqiyotining bosh omilidir. 4. *Mafkuraviy kurash, satira va ijtimoiy-didaktik adabiyot*. Ma'rifatparvarlar adabiyoti yo'nalishi tadqiqini shakllantirdi.

Olimning sa'y-harakatlari natijasida adabiyotshunoslik maktab maqomidan yuksalib, markaz maqomiga yaqinlashgan. Mazkur davr B.Valixo'jayev, N.Shukurov, S.Mirzayev, R.Orzibekov, I.Salohiy, Q.Tohirov, A.Abdurahmonov, Sh.Xolmatov kabi yirik adabiyotshunos, matnshunos olimlarning faoliyati akademik V. Abdullayev rahbarligida Samarqand adabiyotshunoslik maktabining oltin davrini tashkil etadi. Bu davrda respublika miqyosida e'lon qilingan adabiyotshunoslikka oid biror-bir asar – xoh ilmiy, xoh badiiy, xoh o'quv adabiyoti bo'lsin, Samarqand olimlarining nazaridan chetda qolmas, o'quv adabiyotlari va yirik fundamental nashrlar esa muntazam ravishda mazkur maktab vakillarining ishtirokida yaratilar edi.

Vohid Abdullayevning oliy o'quv yurtlari uchun yaratilgan "O'zbek adabiyoti tarixi" (XVII-XIX asrning 1-yarmi) darsligi, professor R.Orzibekov ta'kidlaganidek, domla va shogirdlarining mehnatlari tufayli qo'lga kiritilgan noyob manba va adabiy materiallar respublikamizning taniqli olimlari bilan hamkorlikda yaratilgan "O'zbek adabiyoti namunalari", "O'zbek adabiyoti tarixi", "O'zbek adabiyoti bo'stoni" ko'p jildli adabiy, ilmiy va darslik kitoblarning maydonga kelishida mislsiz ahamiyatga ega bo'ldi⁷. Besh tomlik "O'zbek adabiyoti tarixi" kitobi V.Abdullayev, B.Valixo'jayev, R.Orzibekov, Q.Tohirov singari olimlar ishtirokida dunyo yuzini ko'rdi. Qo'lga kiritilgan katta yutuqlar samarasi o'laroq, u 1960-yildan boshlab O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi, 1966-yildan boshlab esa haqiqiy a'zosi qilib saylandi. Akademik V.Abdullayev poydevorini mustahkamlagan Samarqand adabiyotshunoslik maktabidan yetishib chiqqan filolog olimlar Toshkent, Buxoro, Xorazm, Farg'ona, Andijon, Namangan Termiz, Qarshi, Jizzax, Navoiy, asosan, Samarqand oliy o'quv yurtlari, ilmiy tekshirish institutlarida faoliyat olib bormoqdalar va hozirda ham xizmat qilmoqdalar.

Olimning bo'y-basti, salobati, ulug'ligini uning nishonlari, unvonlari emas, balki fanga qo'shgan ilmiy mahsuli, yetishtirgan shogirdlari ravshan namoyon etadi. Vohid Abdullayev ana shunday maktab yaratgan adabiyotshunos. Uning bevosita rahbarligida 60 ga yaqin tadqiqotchilar navoiyshunoslik, mumtoz va hozirgi zamon adabiyotiga daxldor mavzulardan nomzodlik va doktorlik ishlarini yoqladi va bu an'ana hozir ham ushbu maktablarda davom etmoqda.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Vohid Abdullayev – Alisher Navoiy hayoti va ijodining tadqiqotchisi**" deb nomlangan bo'lib, ikki faslni o'z ichiga oladi. Birinchi fasl "**Alisher Navoiyning Samarqanddagi hayoti va ijodi tadqiqi**" deb nomlangan. Bu faslda Samarqand ilmiy-ijodiy muhiti bilan bog'liq ma'lumotlar shoir siymosini anglashga xizmat qiladigan asosiy masalalardan sanalishi, bu

⁷ Адабиёт илмининг алломаси. (Академик Вохид Абдулла замондошлари нигоҳида). – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 58.

mavzu shoirning nafaqat o'z asarlarida, balki zamondoshlari asarlarida ham o'z aksini topganligi V.Abdullayev tadqiqotlari asosida ochib berilgan.

Alisher Navoiyning siyosiy faoliyatini yorituvchi ilk tarixiy manba Samarqandlik Abdurazzoq Samarqandiyning “Matla’ us-sa’dayn va majma’ ul-bahrayn” asari bo’lsa, uning ijodiy faoliyati va shoirlik salohiyati haqida qimmatli ma’umot beruvchi ilk manba samarqandlik shoir va olim Davlatshohning “Tazkirat ush-shuaro” tazkirasidir. Adabiyotshunoslar tomonidan Alisher Navoiyning Samarqandga kelish sabablari turlicha izohlandi. Ba’zilari shoirning bu yerga o’z ixtiyori bilan kelganligini ta’kidlashsa, ba’zilari o’qish niyati bilan kelganligi, ayrimlari surgun qilinganligini taxmin qilishadi. V.Abdullayev bularning barchasiga munosabat bildirdi va asl manbaga – Navoiyning o’z asarlariga, Xondamirning “Makorim ul-axloq” asari va boshqa tarixiy manbalarga tayandi.

V.Abdullayevning aniqlashicha, Samarqand Navoiyning ham hayoti, ham ijodida juda katta rol o’ynadi. Olim Navoiy bergan ma’lumotlarga asoslangan holda Samarqanddagi adabiy suhbatlarda shoirning e’tiborini o’ziga ko’proq qaratgan Mirzobek, Mirzo Xo’ja Sug’diy, Harimiy Qalandar, Riyoziy Samarqandiy, Said Qutb Samarqandiy, Yusuf Andijoniy, Yusuf Safoiy kabi shoirlar ham bo’lganligini qayd etadi: “Navoiy mana shu ishtiroki bilan Fazlulloh Abulaysiy, Alo’ Shoshiy, Muhammad Olim Samarqandiy, Xoja Xisrav mudarrislik qilib turgan madrasalarda adabiyotning turli nazariy masalalari, she’r san’ati, aruz bahrlari ustida va maktabdoshlarining ba’zi bir she’rlari muhokama qilingan suhbatlarda munozaralarda faol qatnashar edi”⁸.

Alisher Navoiy Samarqandda yashagan vaqtida Ibn Sino, Forobiy, Abu Fazl Muhammad Samarqandiy, Maqsudiy, Yoqut, Hamaviy, Nizomiy Aruziy Samarqandiy, Yusuf Sakkokiy Xorazmiy, Sa’diddin Taftazoniy kabilarning poetika, falsafa, tarix, geografiya, astronomiya va riyoziyotga oid bo’lgan kitoblari hamda ularning sharhlari bo’lgan asarlar uning mutolaasida bo’lganligi Vohid Abdullayev tadqiqotlarida ochib berilgan⁹.

Vohid Abdullayev Navoiy Samarqandda kechirgan bir necha yillik hayoti davomida asosan aniq va tabiiy fanlarni o’rganishga zo’r ishtiyoq ko’rsatgani, ilmi irfonni esa keyinchalik, Hirotga qaytgach, Jomiy bilan uzluksiz suhbatlarda, yaqin aloqada bo’lib takomilga yetkazgani haqida fikr yuritadi. Y.E.Bertels Jomiy va Navoiy tanishuvlari sanasi haqida fanda aniq ma’lumot uchramasligini¹⁰ ta’kidlaydi, ammo akademik B.Valixojayev Jomiy va Navoiyning tanishuvlari aynan Samarqand safarlarida yuz bergan bo’lishi mumkin¹¹ degan mulohazani bayon etadi. N.Muxitdinova esa “Navoiy Samarqandga kelishidan ko’zlagan maqsadi – ilm-u irfonga Xoja Ahrori Valiy rahnamoliklarida muyassar bo’lgani¹² haqida yozadi.

⁸ Абдуллаев В. Танланган асарлар. Икки жилдлик. 1-жилд. Навоий Самарқандда. – Тошкент: Фан, 2002 – Б. 53.

⁹ O’sha manba. – Б. 107.

¹⁰ Бертельс Е.Э. Избранные труды. Навои и Джами. – Москва: Наука, 1965. – Б. 225.

¹¹ Валихўжаев Б. Навоийнинг Самарқанддаги қадамжолари. – Самарқанд, 1991. – Б. 23-31.

¹² Мухитдинова Н. Алишер Навоий мадрасаи олияда таълим олганми? ЎЗА. 06.08.2020.

Vohid Abdullayev Alisher Navoiyning mashg'ulotlari va bilim doirasi, Samarqanddagi adabiy faoliyati, Hirotga qaytishi va Navoiy izdoshlari kabi masalalar tadqiqiga ko'ra, 1465-1469-yillarni Samarqandda o'tkazgan Navoiy "Majolis un-nafois" asarida Fazlulloh Abulaysni eslar ekan, "Faqir ikki yil alarning qoshida saboq" o'qidim. Oncha iltifoti bor erdikim farzand der erdi¹³ kabi fikrlarini bayon etadi. Bundan ayrim adabiyotshunoslar "Alisher Navoiy atigi ikki yil Samarqandda bo'lgan", – degan xulosaga keladilar. Vohid Abdullayev bu o'rinda gap Fazlulloh Abulaysiy madrasasida ikki yillik saboq to'g'risida borayotganini ta'kidlaydi. Va bu yillarda ham u Movarounnahrda va ko'proq Samarqandda bo'lganini, bu da'voni "Ravzat us-safo"ning 7-kitobida keltirilgan "Alisher Navoiyning Hirotga oradan deyarli to'rt yilni o'tkazib, beshinchi yil qaytib borganligi to'g'risida hujjatlar ham to'liq tasdiqlashini bayon etadi¹⁴. Yana bir ishonchli shohid sifatida Zahiriddin Muhammad Boburning "Samarqandga bordi, necha yil Samarqandda edi", – fikrini misol keltiradi.

Vohid Abdullayev Alisher Navoiy Samarqanddan Hirotga ketgandan so'ng ham samarqandlik ijodkorlar bilan ijodiy aloqada bo'lib turgani, keyinchalik bu yerdan samarqandlik ijodkorlar ilm istab Navoiy huzuriga borganini to'g'risida ham ma'lumot beradi. Olim "Navoiy va Ko'hiy" maqolasida o'spirin Ko'hiyning Abulmo'min-Mo'miniylar izidan Hirotga yo'l olgani haqida ma'lumot beradi¹⁵.

Olim Alisher Navoiyning Samarqanddagi hayoti biror- bir olim yoki mudarris bo'lish uchun harakat qilgan, odatdagi, oddiy o'quvchi-talabanning hayotidan tamoman farq qilganligini qayd etadi. Xullas, Navoiy o'zining hayoti va ijodida chuqur iz qoldirgan Samarqandni hech qachon unutmaydi. Akademik Vohid Abdullayevning Alisher Navoiy va Samarqand mavzusiga oid qarashlari uning shogirdi akademik Botirxon Valixojayev tomonidan davom ettirildi va to'ldirildi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli "***Olim adabiy-estetik qarashlarida Navoiy va adabiy ta'sir masalasi***" deb nomlangan. Bu faslda Alisher Navoiyning keyingi davr ijodkorlari asarlariga ta'siri masalasi yoritilgan. Alisher Navoiy ijodi nafaqat o'z davri va keyingi davr ijodkorlari uchun ilhom manbayi bo'lib qolmay, balki ayrim ijodkorlardan Navoiyning o'zi ham ilhomlandi. Xususan, samarqandlik yosh shoirlardan "saromadi zamona" sanalgan, yoshligidayoq vafot etgan Mirzobekning:

Ko'zung ne balo qaro bo'lubdur.

*Kim, jonga qaro balo bo'lubdur*¹⁶, – matla'siga g'azal bog'lagan.

Navoiy bundan qo'sh qofiyali she'rlar yozish katta mehnat va talant talab qilishiga ishora qilib, "qofiyalari tardu akskim, javob aytmoq bu faqir qoshida maholatdindur", – deydi. Yana shunday she'rlardan biri "*Ko'kragumdur subhning pirohanidin chokroq, Kiprigim shabnam to'kilgan sabzadin namnokroq*"¹⁷, – deb

¹³ Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 20-жилдлик. – Тошкент: Фан, 1997. – Б. 32.

¹⁴ Абдуллаев В. Танланган асарлар. Икки жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 2002. – Б. 41.

¹⁵ O'sha manba. – Б.154-155.

¹⁶ Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 20-жилдлик. – Тошкент: Фан, 1997. – Б. 32

¹⁷ Абдулла С. Бир матлаъ ғазал тарихи. "Гулистон" журналы, № 2. 1967. – Б. 28-29.

boshlanuvchi gʻazalidir. Bu gʻazal tarixi adabiyotshunoslar orasida mashhur boʻlgan ijod namunasi hisoblanadi.

“Ustoz Vohid Abdullayev yaratgan “Navoiy zamonida Buxoro sheʼriyati”, “XIX asrda Buxoroda navoiyxonlik va Navoiy anʼanalari”, “Navoiy va Koʻhiy”, “Navoiy va nazira”, “Navoiy va Munis”, “Alisher Navoiy va Atoullo Atoy”, “Navoiy va Bobur”, “Xamsa” shoirlar nazmida” kabi tadqiqotlari Alisher Navoiy ijodining keyingi davrlar oʻzbek adabiyotiga taʼsiri masalalarini yoritishga bagʻishlangan. Bu ilmiy ishlarda bir tomondan, Alisher Navoiy anʼanalarining boshqa shoirlar ijodida izchil rivojlantirilganligi masalasi yoritilgan boʻlsa, ikkinchi tomondan, adabiyotimiz tarixida yangi-yangi shoirlarni kashf etish, ularning oʻz davri adabiyotida tutgan oʻrnini aniqlab berish kabi gʻoyat muhim maqsadlar koʻzda tutilgan. Bu ishlarning aksariyati adabiyotimiz tarixi uchun nomaʼlum boʻlib kelayotgan faktik qoʻlyozma manbalar asosida oʻrganilgan”¹⁸.

Samarqandda oʻtgan Ashkiy, Afzaliy, Bediliy, Odamiy, Viqoriy, Doʻstiy, Lutfiy, Vajhiy, Haziniy, Uhdiy, Toleiy, Muqimiy, Xurramiy, Zayniy, Zehniy singari XVI-XVII asr oʻzbek va tojik shoirlari; Muhammad Amin Sarafrozi Samarqandiy kabi XVII-XVIII asr shoirlari; Fikriy, Fahmiy, Sipandiy, Pisandiy, Ajziy, Vasliy, Jurʼat singari XIX asr oxiri XX asr boshlarida oʻtgan shoirlar ham oʻz qalamlarini ijodkorlikda oʻnglab olishda u yoki bu holatda Navoiy merosiga murojaat etgan, uning soʻz xazinasidan, mahoratidan bahramand boʻlgani olim darsxonasida adabiyotshunoslikning yangi sahifasi sifatida kashf etiladi. Qolaversa, shoirning izdoshlari nafaqat Samarqandda, balki Jizzax, Gʻallaorol, Zomin, Jomboy, Urgut, Oqdaryo, Kattaqoʻrgʻon, Ziyovuddin vohalarida areal muhitlarda koʻp shakllangan.

Vohid Abdullayev XIX asrda Buxoroda navoiyxonlik va Navoiy anʼanalarini qalamga olib, XIX asrda Buxorodagi oʻzbek adabiyoti namoyandasi – Shavqiy Kattaqoʻrgʻoniy Navoiy gʻazallariga muxammas, musaddaslar bogʻlaganligi, tazminlar yozganligi, shoir izidan borib, gumanistik fikrlarni ilgari surganligini aniqlasa, Vola va Navoiy sheʼriyati uslubida umumiylik borligini, Ochildimurod Miriy Kattaqoʻrgʻoniy ijodi Navoiy lirikasi va “Xamsa”da ilgari surilgan gʻoyalarning kuchli taʼsirida boʻlganligini, Navoiy gʻazallariga muxammaslar bogʻlaganligini, Mujrim Obid gʻazallari Alisher Navoiy lirikasi bilan aloqadorligini maʼlum qiladi¹⁹. Shuningdek, “Navoiy izdoshlari” maqolasida Alisher Navoiyning bir qator gʻazallariga Pahlavonquli Ravnaq, Mavlono Nishotiy tazmin muxammaslar bogʻlaganligi haqida yozadi. Olim tomonidan adabiy jamoatchilikka maʼlum qilingan “Muxammasoti mutafarriqa”²⁰ toʻplamidagi 125 muxammasdan 105 tasi oʻzbekcha boʻlib, shundan 68 tasi Navoiy gʻazallariga bogʻlangan, ayniqsa, Nishotiy, Ravnaq, Andalib, Roqim, Kiromiy, Munis, Vafoiy, Jinoiy, Mavzun kabilarning muxammaslari adabiyotda Navoiy gʻoya-maqsadlariga

¹⁸ Муҳиддинов М. Вохид Абдуллаев ва Самарқандда навоийшунослик. Тўплам. 2022. – Б. 3 -14.

¹⁹ Абдуллаев В. Валихўжаев Б. Мирий ва унинг замондошлари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 21.

²⁰ Мухаммасоти мутафаррика. Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондидаги қўлёзма инв. № 7050.

ergashish, uni qo'llab-quvvatlash, she'riyatda uning maktabini davom ettirishini ma'lum qiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Vohid Abdullayev ilmiy faoliyatida mumtoz adabiyotning dolzarb muammolari”** deb nomlangan bo'lib, 3 faslni o'z ichiga oladi. Birinchi fasl **“Vohid Abdullayev – fors-tojik she'riyati va adabiy aloqalar munaqqidi”** deb atalib, olimning fors-tojik adabiyoti bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy ishlari haqida fikr yuritiladi. Sadriddin Ayniy adabiy-tanqidiy qarashlari Vohid Abdullayev fors-tojik adabiyotining o'zbek adabiyotiga ta'sirini ochib berishida asosiy ko'prik bo'ldi. Fors-tojik tilida yaratilgan badiiy, tarixiy asarlarni, tazkiralarni tadqiq etdi. O'zbek adabiyotining fors-tojik, turkman, ozarbayjon ijodkorlari bilan munosabati olimning diqqat markazida turdi. Xamsanavislik an'anasi peshqadam mutafakkiri Nizomiy, adabiy aloqalar yalavbardor shoiri Fuzuliy, Nasimiy va o'zbek adabiyotida adabiy izdoshlik, Qur'on va hadis tilida ijod qiluvchi Hofiz, Mirzo Bedil ijodi tadqiqida mumtoz adabiyotimiz hamohangligi kabi dolzarb masalalar olim izlanishlarida ilk yechimini topdi.

O'zbek mumtoz adabiyotida zullisonaynlik – ham turkiy, ham fors-tojik tilida yozish alohida an'ana edi. Bu Xorazmiy nomasi bilan boshlanib, Alisher Navoiy ijodida mukammallik kasb etgan, keyingi asrlarda Majlisiy, Mashrab, Vafoiy, Turdi, Ravnaq, Roqim, Nishotiy, Mujrim Obid, Munis, Ogahiy, Komil, Gulxaniy, Maxmur, Uvaysiy, Ma'dan, Shavqiy Kattaqo'rg'oniy, Miriy, Nodim, Vola Yangiqo'rg'oniy va zamonamizning zabardast vakillari Hamza Hakimzoda, ustod Ayniy ijodida ham bu an'ana muvaffaqiyat bilan davom ettirilgan edi.

Vohid Abdullayev Miriy ikki tilda g'azal yozish bilan qanoatlanmay, bir g'azalning o'zini mulamma' shaklida yozganligi, misraning birinchi qismini o'zbek tilida yozsa, ikkinchi qismini tojik tilida yozganligini dalillaydi:

*Turk-u tojik ishqingga oshufta, chun sharlash kunam,
Telbalardek Miriy ham gah turku, gah tojikdahan²¹.*

Olim zullisonayn ijodkorlardan biri Turdi Farog'iy fors-tojik tili va adabiyotini ham mukammal bilganligi, u ayrim she'rlarini fors-tojik tilida yozganligi, klassik shoirlarning g'azallariga muxammaslar bog'laganligi, “Muxammas bar g'azali Sa'diy”²² nomli 20 misrali beshligi shular jumlasidan ekanligini mukammal tahlilga tortadi.

Vohid Abdullayev tazkiralardan Qo'qon xoni Amir Umarxon saroyida Fazliy Namangoniy tomonidan yaratilgan “Majmuayi shoiron”da asosiy e'tibor Umarxon (Amiriy), uning vaziri Qosim Beklarbegi (Vazir), Shayxulislom Sultonxonto'ra Ahroriy (Ado) Kabir kabi yirik namoyandalarga berilganligini ma'lum qiladi. Nazmda bitilgan fors-tojik tilidagi asar kirish qismidagi 598 misrali masnaviyda 75 shoirning nomi tilga olingani (akademik V.V.Bartoldning hisobiga ko'ra, kitobda 101 shoirning she'ri bor), asar strukturasi to'rt qismga ajratilib o'rganilganligi, unda masnaviy, qasida, g'azal, ruboiy, muxammas, musaddas, mustazod, ta'rix,

